

LUTFIY SHE'RIYATIDA TASAVVUF TARANNUMI

Boymuratova Nargiza Bozorboyevna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil

tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada Lutfiy hayoti va ijodidagi tasavvufiy talqinlar haqida aytilgan.

Kalit so'zlar : Lutfiy she'riyati, tasavvuf, tarixiy adabiyotlar, timsollar.

Аннотация: В статье говорится о мистических интерпретациях жизни и творчества Лютфи.

Ключевые слова: Поэзия Лютфи, мистика, историческая литература, символы.

Annotation: The article tells about the mystical interpreter of Lutfi's life and work.

Keywords: Lutfi's poetry, mysticism, historical literature are examples.

Alisher Navoiy she'r qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr bildirar ekan, unda albatta yetuk ma'no bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. She'rdagi ma'noni chiroyli ifodalash esa mumtoz adabiyotimizda badiiy tasvir vositalari, timsol va ramzlarni nechog'lik mohirona qo'llash bilan belgilangan. XV asrning I yarmi shoirlari ijodida qanday majoziy ma'no va timsollardan foydalanilgani, xususan, bu davr shoirlarining she'rlarida tasavvufiy ma'no va timsollarga qanchalik ahamiyat qaratilganini tekshirishdan oldin mazkur ta'limotning mohiyati haqida to'xtalish foydadan xoli bo'lmaydi.

«Tasavvuf» arab tilshunosligida ot so'z turkumiga mansub kalima bo'lib, u Qur'oni karimdan qalb ilmini keltirib chiqargan falsafiy ta'limot sifatida baholanadi. Islom tasavvufining VIII asrning o'rtalarida qanday zaruratlar asosida paydo bo'lganligi haqida to'xtalar ekan, mutaxassislar yakdillik bilan ushbu ta'limot inson qalbi va ruhiyatini mo'ljalga olib, jaholat va xudbinlikka qarshi maydonga chiqqanini,

axloqiy poklikni targ'ib etganini ta'kidlashadi. Shuningdek, tasavvuf «...hazrati Muhammad Mustafu sallallohu alayhi vasallam vafotlaridan keyin musulmonlar jamoasi ichida bo'linish yuz bergani, ular o'rtasida boylikka ruju qo'yish, qimmatbaho tuhfa bilan qarindosh-urug'lar, yaqin do'st-birodarlarni siylash rasm bo'lgani, saroy amaldorlarining dabdababozlikka, oltin-kumush, xazina to'plashga berilishlari, natijada diniy amallar, xolis Alloh yo'lidagi toat-ibodat o'rnini dunyoviy ishlar, dunyo moliga muhabbat egallay boshlagani, bu hol diniy amrlarni ado etishni har qanday dunyoviy ishlar, mol-dunyo yig'ishdan ustun qo'ygan e'tiqodli kishilarning noroziligiga sabab bo'lgani...»¹ mahsuli ekanligi ham tarixiy kelib chiqishi sifatida qayd etiladi .

Ma'lumki, islom tasavvufi haqiqiy ma'noda insonparvar ta'limot hisoblanadi. Uning eng buyuk g'oyasi odamiylikdir. So'filarning bosh maqsadi odamiylikka erishish bo'lgan. Kichiklarga farzandlik mehri, kattalarga ota hurmati va tengdoshlarga do'stlik sevgisini ko'rsatish tasavvuf bosh odobining asosi hisoblanadi. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, hayot o'limdadir. Qalbning hayoti nafsning o'limida. Qalb hayot bo'lishi uchun nafs o'lishi kerak. Tasavvufda so'fiy nafasdan qalbgacha, qalbdan sirgacha, sirdan ruhga, ruhdan Haq taologa safar qiladi. Nafas islom, qalb imon, sir ma'rifat, ruh tavhid manzilidir. Tasavvufga ko'ra, Haq taolo muhabbat va ibodat bilan qidiriladi. XV asrning I yarmi shoirlari o'z asarlarida Allohni ham muhabbat bilan, ham ibodat bilan – ham shariat, ham tasavvuf bilan qidirdilar.

Xususan, bu davrning eng nomdor shoiri, «Malikul-kalom» Lutfiy she'riyatida ham islom tasavvufining yuksak ruhoniyligi holatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, uning mashhur «Inonma» radifli g'azali bir qarashda dunyoviy sevgi tarannumidek ko'ringani bilan, aslida unda tasavvufiy ma'no mujassamligini kuzatish mumkin.

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,

Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.

¹ Najmiddin Komilov. Tasavvuf. –T., 200-y. 9-b.
www.pedagolar.org

Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey moh,
Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.

Haqqoki, qilich kelsa boshimg'a, eshikingdin
Yo'qtur guzarim, xoh inon, xoh inonma.

Usruk ko'zing ashkolina har gah nazar etsam,
Qolmas xabarim, xoh inon, xoh inonma.

Ya'qub bikin ko'p yig'idin qolmadi sensiz
Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma.

Oy yuzunga ko'z solg'ali o'zga kishi birla
Yo'qtur nazarim, xoh inon, xoh inonma.

Ishq o'tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi,
Ey siymbarim, xoh inon, xoh inonma.²

Mazkur g'azalda «fano fish-shayx» maqomidagi solikning holati tasvirlangan. Alloh jamolining mazhargohiga aylangan haqiqiy murshidi komil solikni tamomila o'ziga asir etgan. Ya'ni Haqqa eltadigan yo'l pir orqali o'tadi va pir bilan «bir tandagi ikki jon» bo'la olgan solikkina diydori ilohiyga yetishadi. Lutfiy g'azalidagi oshiqning piri «fanofilloh» maqomidagi murshiddir. Shuning uchun oshiq ishqdan mast, ishqqa g'arq pir ko'zining holatlariga goh-goh nazar tashlaganida o'zini yo'qotadigan darajaga keladi. Uning holati Yoqub alayhissalomning farzandi arjumandi Yusuf alayhissalom dog'ida chekkan azobiga tenglashadi. Bundan tashqari, lirik qahramon chinakam mutasavviflar kabi xilvatni ixtiyor etadi. Ya'ni u Haq jamoli tajalligohi pining yuziga o'zga kishi birla nazar solishni xohlamaydi. Alloh ishq alangasida, Haq taolo muhabbati dardida tinmay riyozat

² Lutfiy. Sensan sevarim. –T., 19878-y. 22-b.
www.pedagoglar.org

chekaverganidan, lirik qahramonning yuzi shu darajada sargʻayib ketadiki, hatto bu yuz oldida oltinning sariqligi ham bilinmay qoladi. Gʻazal maqta'sida kelgan «siymbar» soʻzining lugʻaviy ma'nosi «kumush sochuvchi» degani. Bu yerda esa ushbu soʻz oʻzidan Allohning nuri taralayotgan pir ma'nosida kelgan.

Tasavvufda Alloh ishqida oshiq tortadigan oh Alloh (Olloh) kalimasining qisqargan shaklidir. Ohdagi alif BIR (Alloh)ga ishora qilsa, h (hoyi havvaz) arab alifbosida yozilishiga koʻra quyoshga oʻxshatiladi. Ya'ni oftob har kuni oh (Olloh) deb chiqib, oh (Olloh) deb botadi. Oshiq ohining hijron kechasi saharida charxi falakni tutishi bejiz emas. Chunki sahar vaqti oshiqlar uchun Alloh fayzlarining bozori eng qizigan payt hisoblanadi. Ahli tasavvuf bu fursatni hech qachon qoʻldan bermaslikka harakat qilgan. Binobarin, Mavlono Muqimiy ham «Subhi savdodin qolib bozoridin ayrilmasin» deganida ayni imkoniyatni nazarda tutadi.

Tasavvuf ta'limotiga koʻra, Allohga boradigan yoʻl shayx (pir)dan oʻtadi. Shayxi boʻlmaganning shayxi shaytondir. Shuning uchun ham, Lutfiy gʻazalidagi lirik qahramon hatto boshiga qilich kelsa-da, shayxining eshigidan nari ketmaydi.

Lutfiyning boshqa gʻazallarida ham tasavvufiy yoʻnalishning borligi koʻrinadi. Masalan, uning «Nigoro, sensizin mandin ne hosil? Agar jon boʻlmasa tandin ne hosil?» bayti bilan boshlanadigan gʻazalini tasavvufdan bexabar odam zohiriy ma'noda «Sevgilim, sen mening jonimsan; xuddi jonsiz vujuddan hech qanday foyda yoʻq boʻlgani kabi, men ham sensiz yoʻqman» deb tushunadi. Ammo bu matla'ni tasavvufdan xabari bor inson butunlay boshqa ma'noda anglaydi. Ya'ni: «Allohni sevmaydigan, imonsiz insondan hech bir foyda yoʻq va Allohni tanimaydigan inson jonsiz vujuddan, jismdan iborat» deya shoir ruhoniy hayotga da'vat etayotganini fahmlaydi.

Gʻazalning keyingi baytlarida bu ma'no yanada kuchaytiriladi:

Chu guldin rang emas, bulbulgʻa boʻe,

Bahoru bogʻu gulshandin ne hosil?

Jafou ishvalarni fan tutubsen,

Muningtek ishvau fandin ne hosil?

Kishikim, yo‘q turur mehru vafosi,
Agar xurshedtur, andin ne hosil?

Bu turluk husn ila Lutfiy qulungg‘a
Inoyat qilmasang, sandin ne hosil?³

Agar qalbda Alloh sevgisi bo‘lmas ekan, bulbul – oshiqlikning va gul, ya'ni oshiq ishqiga shahodatlikning, bahoru bog‘u gulshanning, jafo hamda ishvalarning hech ham keragi yo‘q. Agar insonda mehru vafo, muhabbat bo‘lmas ekan, u quyosh bo‘lgan taqdirda ham foydasi yo‘q. Shuning uchun karami keng Parvardigor o‘zi yordam qilmasa, Lutfiyning Haq oshig‘i bo‘lishi qiyin. Shuning uchun tasavvuf ta'limotida Allohning bandasini sevishi bandaning Allohni sevishidan oldin boshlanadi deyiladi. Agar Alloh bandasini sevmasaydi, bandaning uni sevishi mumkin bo‘lmas edi. Ya'ni Haq taolo o‘zi sevgan qulini o‘ziga oshiq qilib qo‘yadi.

Lutfiy nafaqat turkiy tildagi, balki fors-tojik tilidagi asarlari bilan ham keng shuhrat qozongan ulug‘ shoirdir. Uning lirikasi badiiy yuksakligi va til boyligi bilan diqqatga sazovor. Lutfiyning hayoti zamonasining olimlari, shoirlari, madaniyat ixlosmandlari doiralarida kechdi. U katta bilimi, o‘tkir mushohadasi, vazmin tabiati va ijoddagi yuksak iste'dodi bilan ko‘pchilikning e'tirofiga sazovor bo‘ldi.

Mavlono Lutfiy Navoiyga qadar bo‘lgan adabiyotda buyuk lirik shoir sifatida shuhrat qozongan san'atkordir. Shoirning kimligi, shaxsiyati haqida Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois», «Muhokamatul-lug‘atayn», «Manoqibi Pahlavon Muhammad», «Nasoyimul-muhabbat», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» nomli asarlarida, Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkiratush-shuaro», Xondamirning «Habibus-siyar», «Makorimul-axloq», Abdulla Kobuliyning «Tazkiratut-tavorix», Shamsiddin Somiyning «Qomusul-a'lam», Vozihning «Majmuai manzum va

³ Lutfiy. Devon. –T.,2012-y. S.Erkinov. 156-b.
www.pedagoglar.org

mansur», Shayx Sulaymon Buxoriyning «Lugʻati Chagʻatoyi va turkiyi Usmoniy» kabi asar va kitoblarda ma'lumotlar berilgan. Lutfiydan bizga she'rlar devoni, «Gul va Navroʻz» dostoni, Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»siga tayanib yozgan oʻn ming baytdan ortiq asari meros qolgan. Lutfiy devoni asosan gʻazallardan iborat boʻlib, odatdagidek qasida, ruboiy va qitʼalarni, shu jumladan, tuyuqlarni ham oʻz ichiga oladi. Uning sheʼrlari goʻzal oʻxshatishlar, ajoyib soʻz oʻyinlari, rang-barang badiiy boʻyoqlar vositasida ohangdorlik kasb etgan. Tasavvufiy mazmun bilan yoʻgʻrilgan ishqiy gʻazallari ham alohida eʼtiborga molik. Mavlono Lutfiy turkiy tildagi asarlarida Xoja Ahmad Yassaviy, Xorazmiy, Sayfi Saroyi, fors-tojik tilidagi asarlarida Kamol Xoʻjandiy va Hofiz Sheroziy anʼanalarini davom ettirgan.